

**ALISHER NAVOIY SHE'RIYATIDA XIZR OBRAZI TALQINI
("NAVODIR USH-SHABOB" (DOIRASI)DA)**

Tirkasheva Muxlisa¹

¹ Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
2-bosqich magistranti. Tel: +998975780198
E-mail: tirkashevamuxlisa695@gmail.com

**MAQOLA
MA'LUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:11.11.2024

Revised: 12.11.2024

Accepted:13.11.2024

KALIT SO'ZLAR:

“Obihayvon”,
“Obizindagoniy”,
“Hayvon zuloli”,
“Tiriklik suyi”,
“Suchashmayi hayvon”,
“Hayoti jovidony”,
“Gunbadi xazro”,
“Xazoyin ul-maoniy”,
“Navodir ush-shabob”,
g‘azallar, poetik
mazmun, tasavvufiy,
sufiyona.

Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotining tarkibiga kiruvchi ikkinchi devon “Navodir ush-shabob” devoni ob’ekt sifatida olinib, predmeti esa ushbu devondagi g‘azallarda qo‘llangan Xizr obrazi va uning turli jozibador poetik talqinlari hisoblanadi. Bundan tashqari Xizr obrazi orqali ishga solingan she’riy san’atlar ham haqida ham biroz fikr yuritib o‘tilgan.

KIRISH. So‘z san’ati bo‘lgan adabiyotning , bu san’at turining quroli hisoblangan badiiy tasvir vositalarining , obrazlar tizimining asosiy maqsadi ham, vazifasi ham bu olamning yaratuvchisi “Alif”ni va u yaratgan “tiriklik”ning gultoji insonni, ularning muhabbatini tarannum etish va ularning xarakterli belgilarini eng va ilohiy go‘zalliklarini yoritishdir. Bu san’atning qimmatli va “ilohiy” vositalaridan biri Xizr obrazidir.

Mumtoz adabiyotni usiz tasavvur qilib bo'lmaydigan daho ijodkor Alisher Navoiy she'riyatida bu obraz ilohiy va majoziy ishq tasvirida, inson va iloh tarannumida eng inja mazmunlarda, betakror baytlarda qo'llangan. Bu baytlarda shoir Xizr obrazi va unga ishora qilgan timsollarni turli shakl va mazmunlarga xizmat qildirib, o'ziga xos poetik maqsadlarda foydalangan. Goh Xizr bilan aloqador voqealarni eslatib o'tsa, goh yorga Xizr nisbatini berib, Xizr deb murojaat qiladi. Mahbub, dardkash, rahnamo, yo'lboshlovchi sifatida keltiradi, obi hayvon yoki bo'lmasam Xizr zuloli shaklida baytlarga olib kiradi; abadiy hayot motivi, "xatt" va yashillik ishoralari, Iso Masih bilan birga paralelliklar, Xizr va Iskandar qissasiga ishoralar orqali yorga ishqini, Ollahga muhabbatini yaqqol namoyon qiladigan nafis satrlar bitadi. Fikrimizning isboti tariqasida shoirning mukammal asarlar to'plamidan o'rin olgan "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti va uning tarkibidagi "G'aroyib us-sig'ar", "Navodir ush-shabob", "Badoiy-ul vasat", "Favoyid ul-kibar" devonlarini tashkil qiluvchi 16ta she'riy janrlardan ba'zilarini misol keltirishimiz mumkin. Xususan, Navoiy ijodining "Navodir un-nihoya"sida birgina g'azal janrining o'zida aynan Xizr obraziga 19 marotaba, "Navodir ush-shabob"ida 17 marotaba, "G'aroyib us-sig'ar"ida 28 marotaba murojaat etishlar uchraydi. Shuningdek, aynan Xizr emas Xizr obraziga ishora qiluvchi badiiy detallar ham o'ziga xos poetik liboslarda namoyon bo'ladi. Misol tariqasida "Obihayvon", "Obizindagoniy", "Hayvon zuloli", "Tiriklik suyi", "Suchashmayi hayvon", "Hayoti jovidoniy", "Gunbadi xazro" kabi Xizr obraziga ishoraviy badiiy detallarni uchratamiz. Bu ko'rsatkichlarni hali uzoq davom ettirish mumkin, ammo buning o'zi emas. Chunki, Xizr obrazining betakror talqinlari Navoiy dahosining g'azal janri bilan cheklanib qolmaydi. Chunonchi, tuyuq, mustahzod (Hayvon suyi jonimni olur la'lidin ayru ul jur'ai maykim, Tegmish anga maygun labi jonimg'a davodur ne zahru, ne taryok), qit'a va boshqa lirik janrlarida ham Obizindagoniy obrazi oshiq va mashuq, ishq tasvirida original armug'onlarda qo'llangan.

Xizr obrazini qo'llashda Alisher Navoiy nafaqat ma'naviy balki lafziy jihatdan ham o'ziga xosdir. Ya'nikim, bu "Hayoti jovidoniy" badiiy vositasini o'z she'rlarining mabda – maqta, begona bayt va asosiy baytlarda talmeh, tashbeh, tamsil, tazod, nido, mubolag'a, (metafora) kabi she'riy san'atlariga bo'ysundirib qo'llaganda ham Xizr obrazi orqali ifodalangan badiiy manzaralarning o'ziga xos mazmuniga egaligi yana-da ortganining guvohi bo'lamiz.

Fikrlarimizning tasdig'i o'laroq "Xazoyin ul- maoniy"ning ikkinchi devoni bo'lgan "Navodir ush-shabob"ning quyidagi g'azallarida aynan Xizr shaklida mazkur obrazga murojaat etgan: Alif harfining ofatlarining ibtidosi "Navodir"din 10-g'azal 2-bayt; Tye harfining torojgarlarining tomoshasi "Navodir"din 82-g'azal 3-bayt; Rye harfining ra'nolarining rustaxyezi "Navodir"din 178-g'azal 3-bayt; Sin harfining sumanbarlarining savdosi "Navodir"din 225-g'azal 1-bayt; Shin harfining sho'xlarining shamoyili "Navodir"din 245-g'azal 2-bayt; G'ayn harfining g'izolalarining g'avg'osi "Navodir"din 302-g'azal 3-bayt; Kof harfining kofirlarining kamoli "Navodir"din 344-g'azal 1-bayt; Lom harfining lu'batlarining latoifi "Navodir"din 373-g'azal 10-bayt, 388-g'azal 7-bayt; Mim harfining mahbublarining malohati "Navodir"din 398-g'azal 5-bayt, 403-g'azal 1-bayt, 427-g'azal 5-bayt; Nun harfining nozaninlarining nozi "Navodir"din 461-g'azal 6-bayt; Hye harfining humoyunvashlarining haloqangizliqlari "Navodir"din 533-g'azal 2-bayt; Yo harfining yag'moyillarining yuz ko'rguzmamlari "Navodir"din 636-g'azal 5-bayt, 643-g'azal 5-bayt, 650-g'azal 2-baytlarda. Shuningdek, Xizr obraziga ishora qiluvchi "tiriklik suvi", "hayvon zuloli", "hayvon suyi", "obi hayvon", "obizindagoniy", "suchashmayi hayvon", "hayoti jovidon" kabi birikmalar orqali ham mazkur obraz bilan bog'liq poetik manzaralar yaratilgan: 30-g'azalda "hayvon suyi", 45-g'azalda "hayvon zuloli", 78-g'azalda "obi hayvon", 94-g'azalda "chashmayi hayvon", 263-g'azalda "hayvon chashmasi", 548-g'azalda "hayvon sharbati", 556-g'azal "hayvon sarchashmasi", 245-g'azalda "Sabzai xat orazing bog'ini xazro aylamish..."dek ishoralarga duch kelamiz. 110,124,131,145,167,183,191,219,260,301,344,382,387,399,437,482,486,495,498,503,511, 537,557,564,583,584,586,618,647-g'azallarda va mustahzodlarda ham betakror va jilvakor usulda yor go'zalligini, yorga ishqini tasvirlashda o'rinli qo'llagan. Bundan tashqari Navoiy she'riyatida Xizr obrazining qo'llanishdagi yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, Masih, Muso Majnun Farhod obrazlari bilan yonma-yon ham qo'llab baytlardagi mazmuniy qiymatni yana-da oshiradi. Xususan, Masih bilan yonma-yon qo'llaganda hatto ularning g'ayrioddiy xususiyatlari ham birlashib ketishi holatlari uchraydi. Shin harfining sho'xlarining shamoyili "Navodir"din 245-g'azalning 1,2-baytlarida aynan Xizr, Masih va ularning g'ayri oddiy xususiyatlariga ishoraviy detallar *sabzayi xat, xazro, xattu la'llar* qo'llangan:

Sabzai xat orazing bog'ini xazro aylamish,
Gulshani ruxsoring o'zga rang paydo aylamish.
Har dam o'lmish xattu la'lingdin yuz oncha oshkor,
Har ne ishkim umrida Xizru Masiho aylamish.

Alisher Navoiy g'azaliyotini tahlilga tortishda baytlariga ham ishq ilohiy, ham ishq majoziy mazmun chuqur singdirib yuborilganligini, tasavvuf g'oyalari bilan sug'orilganligini yodda tutishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur g'azalda ham bir qarashda yaqqol namoyon bo'lgan zohiriy va o'ziga xos chuqur mazmunga ega bo'lgan botiniy poetik go'zallik mavjud. Bunda sabza-yashillik, ko'kat, maysa⁹⁴, xat – chiziq, iz, yozuv, xat ma'nolarini bildirishdan tashqari mahbuba yuziga latofat va nafis go'zallik bag'ishlovchi husnu jamol nuqtalari jamlangan xilqat-muyilab va botiniy ma'noda kibriyolik, ulug'lik, buyuklik ba'zan esa vujud martabasiga yaqin bo'lgan ruhlar olamiga ishora etadi⁹⁵. Sabza yashillikni bildirganligi uchunam obi hayvon ichib abadiy hayotga erishgan yashil to'nli, oppoq soqolli Xizr boboga ishora ham bo'lib, undan maqsad abadiy tirikligiga urg'u berishdir. Chunki bayt mazmunining qimmatini oshiruvchi belgisi ham mazkur belgisidir.

Baytda deyilmoqchiki, *yashnab turuvchi(sabz-yashil)latofat va go'zallik jamlangan xating(muyi lab ma'nosida)yuzing bog'ini yana-da gurkiratib, go'zallashtirgan va bundan yuzing gulshani o'zgacha go'zallik paydo etib turibdi*. Bu bir qarashda anglashiladigan zohiriy ma'nosi, ammo botiniy ma'nosi esa mutlaq go'zallikka ishora etmoqda. Ya'ni sabza-yashillik Xizrga ishora, xat so'zining she'riyatda o'simlik ma'nosi ham mavjud. Xizr obrazining asosiy o'ziga xos xususiyati-abadiy tiriklikka egaligi va xat so'zining yozuv-ilohiy yoki muqaddas yozuv ma'nosi, oraz-yuz esa mus'hafni bildirishi, shuningdek, xazro-yashilliklar teran tasavvufiy mazmunda qo'llangan. Ya'ni sabza yashillik-tiriklikning belgisi bo'lsa, Xizrga ishora qilishdan maqsad "abadiy tirik" degan mazmunni berishdir. Bu bilan mutlaq go'zallikka ishora borligi yana bir bor isbotlanib turibdi. Ikkinchi misradagi ruxsor so'zi ham yuz, ya'ni mus'hafni, sahifani anglatish vazifasiga bo'ysundirilgan. Bu haqida f.f.d.adabiyotshunos U.Qobilov ham "...yuz sahifani, boshqacha aytganda Mus'hafni, xat undagi yozuvni ham anglatish vaziyatlari uchraydi. Gohida xat g'ayb olami sifatida ham talqin etiladi"⁹⁶ deya ta'kidlagan edi, bir maqolasida. Bundan chiqdiki, shoir baytlarida ilohiy tajalliyning tarifu tavsiflaridan so'z yuritmoqda va bu yerda Xizr obraziga yana bir bor betakror va juda nozik murajaat mavjudligiga guvoh bo'lishimiz mumkin: *Sabzayi xat /orazing bog'ini/xazro aylamish/*

⁹⁴ Vahob Rahmonov, Erkin Rahmonov, Mamlakat Latipova. Mumtoz asarlar lug'ati. Toshkent-2019.


⁹⁵ U.Qobilov. Alisher Navoiy she'riyatida Xizr obrazi badiiy talqiniga doir. (Maqolasi). – 2023. – 9 bet.

⁹⁶ O'sha manba.

Abadiy tirik mazmunli soʻzlar(*Qurʻoni karimning*) sahifalaring bogʻini umrboqiy qilgan boʻlsa, sahifalaring gulshanidan har safar oʻzga mazmun paydo aylayveradi kabi botiniy mazmun kasb etib turibdi. Bu baytdan keyingi, ikkinchi bayt ham xuddi shunday tasavvuiy-falsafiy ruhni davom ettiradi va hattoki yana ham kuchli mazmun namoyon etadi. Majoziy ishq ijrochisi boʻlgan oshiq yoki mashuq nazdida baytlarda: *Xizr va Masih umrida har ne ish aylamish boʻlsa (sening) nafislik va goʻzallik jamlangan xatingu qip-qizil labingdin har dam yuz barobar koʻproq va qimmatliroq goʻzallik oshkor boʻlmoqda* deyotgandek. Misradagi Xizr va Masih umri boʻyi (Navoiy soʻzi bilan aytganda, jovidon umrida) har ne ish aylamish, yaʼni biri ming yillik oʻlikni tiriltirish qobiliyatiga egaligi, oʻzi esa hali ham barhayotligi, yana biri esa tiriklik suvini topgani va u bilan hayoti jovid boʻlgani, hammaga yordam bergani, adashganlarga yoʻl koʻrsatgani, ollohga taqvoli qoʻllab quvvatlab yurgani, insonlarga baxt ulashgani va boshqa son-sanoqsiz gʻayri insoniy sifatlarga egalik qilgan boʻlsa, *sening nafislik va goʻzallik jamlangan xatingu qip-qizil labingdin har dam yuz barobar koʻproq va qimmatliroq mukammallik oshkor boʻlmoqda* deyilgan. Ammo bu baytlarga bir qaraganda namoyon boʻladigan mazmundir. Tasavvufiy jihatdan tahlil etilganda mazkur ishqiy-irfoniy baytlarda ishq haqiqiy sohibi endi oddiy oshiq emas balki haqqa intilgan solik boʻlib, baytdan oʻzgacha ruh anglashiladi. Bunda Xat soʻzi birgina misraning oʻzida bir qancha maʼnolarda ishlatilganligining guvohi boʻlishimiz mumkin. Xususan, bizning asosiy nishonda turgan Xizr obrazi ham yaqqol namoyon boʻlmoqda -xat soʻzining maysa, oʻsimlik maʼnosi bilan yashil toʻnli mazkur obraz ham esga olinadi. Ammo bayt mazmunining poetik qimmatiga mazkur obizindagoniy obrazining hayvon zuloliga erishib umri jovid ekanligi xizmat qilmoqda. Shuningdek xat soʻzining “yozuv” maʼnosi ham aynan shunday qimmatlidir, chunki ilohiy yozuv nazarda tutilmoqda. Mazmunni yana-da ochish uchun laʼl soʻziga ham toʻxtalib oʻtamiz. Baytda laʼl soʻzi xat bilan yonma-yon qoʻllanilishi ham bejiz emas: laʼl qizil rangli yozuv maʼnosiga ham ega . Bundan tashqari adabiyotshunos olim Vahob Rahmonovning “Mumtoz asarlar lugʻati”da (arabcha) qizil yarqiroq qimmatbaho tosh deyiladi va mumtoz adabiyotda majozan lab maʼnosida, laʼli ahmar –qizil may, laʼli ravon –oqqan qon, laʼli gavharbor –gavhar sochuvchi lab yaʼni *maʼnoli soʻzlovchi* lab kabi maʼnolarda kelishini ham aytib oʻtadi. Navoiy ijodiy namunasi boʻlgan mazkur baytda oʻzi aytganidek “*oʻzgacha rang paydo aylamoqda*” : Masihosa lab, Xizirvash xat deyotgandek. Chunki ikkinchi misrada qoʻllanayotgan Xizrning nishoni xat, Masihning nishoni laʼl –labdir. Labning yondosh maʼnolarda Masihning jon bagʻishlovchi nafasiga qiyoslanishi ham Navoiy dahosining yana bir oʻziga xos qirrasini namoyon qilmoqda. Lab ilohiy soʻz boʻlsa, laʼli(lab) –qip-qizil lab

esa shu soʻzning boqiy va sermaʼnoligini anglatadi. Lirik qahramon haqiqiy ish sohibi, yaratganga oshiq boʻlib sheʼrdagi misralar, misralardagi har bir soʻz orifona mazmunda boʻlib, aynan bu tasvirlarga mos boʻlgan obraz Xizr obrazi ham quyuq talqinlarda berilganligiga guvoh boʻlamiz.

Xulosa oʻrnida shularni qayd etib oʻta olamizki, Alisher Navoiy ikki baytda birgina Xizr obrazini qoʻllash bilan butun bir sanʼat guldastasini armugʻon etmoqda, yaʼnikim baytdagi sabza soʻzi bilan Xizr, xat soʻzi bilan Xizr, xazro soʻzi bilan Xizr obraziga ishora oʻz ishining tasvirini yana-da goʻzallashtirmoqda va oʻz maqsadiga erishmoqda. Shuning bilan birgalikda xat soʻzi bilan metafora, sabza soʻzi bilan tamsil, xazro soʻzi bilan (doimiy yashillik) ham metafora va Xizr soʻzi bilan talmeh sheʼriy sanʼatlarini ham ishga solmoqda .



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. uchinchi tom. "G'aroyib us-sig'ar."- Toshkent: Fan, 1988-2003.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. To'rtinchi tom. "Navodir ush-shabob".- Toshkent: Fan, 1989-2003. -129-bet.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Ikkinchi tom. "Navodir un-nihoya".- Toshkent: Fan, 1987.
4. Alisher Navoiy dostonlarida Xizr obrazi. "Alisher Navoiy ijodi va taraqqiyot masalalari" mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. Navoiy-2001. B 73-74.
5. Abduraimova Xafiza, Ismoilov Ilyos. Alisher Navoiy g'azaliyotida Xizr obrazi talqinlari.- Toshkent: O'zbek tili va adabiyoti jurnali .2024(2-son). 98-119 b.
6. Fozilov E. I. tahriri ostida Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati, O'zbekiston SSR Fan nashriyoti 2- va 3-jild.
7. Ismoilov Ilyos. Navoiy ijodida Iskandar va obihayot. O'zbek tili va adabiyoti jurnali. 5-son 2017: 56 - 62 b.
8. Nurmanov Furqat. Xizr obrazi genezesi va uning o'zbek folkloridagi talqini (tadqiqot ishi). Toshkent.-2007
9. Rahmonov Vahob. Mumtoz asarlar lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2019.- 277 b.
10. Qobilov Usmon. Alisher Navoiy she'riyatida Xizr obrazi badiiy talqiniga doir. (Maqolasi). – 2023. – 15 b.
11. Tilakova Nafosat. Folklor va mumtoz asarlarda Xizr obrazining talqini (maqola). – Qarshi: Scientific Journal Impact Faktor, 2021. – 912-918-betlar.